
DXX RAISI KUBOGI: G'OLIBLAR ANIQLANDI

Avval xabar berganimizdek, Farg'ona shahrida futbol va mini futbol bo'yicha "DXX raisi kubogi" bahslari o'tkazildi. Bugun musobaqaning final uchrashuvlari bo'lib o'tdi.

FarDUNing markaziy o'yingohida o'tkazilgan final o'yinlarida sportsevar yoshlar, taniqli san'atkorlar hamda DXX va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi.

Natijalarga ko'ra, mini futbolda "Sohibkor" mahallasi 1-, "Guliston" mahallasi 2-, "Ibn Sino" mahallasi jamoasi esa 3-o'rinni egalladi. Futbolda esa "Bahor" va "Jo'ydam" mahallalari bellashdi. Kubok "Bahor" mahallasi yoshlariga nasib qildi. 3-o'ringa esa "Yangi yo'l" mahallasi jamoasi munosib topildi.

Musobaqaning taqdirlash marosimida o'tkazilgan kontsert dasturida Toshkent shahridan tashrif buyurgan taniqli san'atkorlar hamda ijodkorlar tomonidan madaniy dastur namoyish etildi. Shundan so'ng, Farg'ona shahar DXX vakillari, sektor rahbarlari hamda san'atkorlar tomonidan g'olib jamoalarga hamda shaxmat bo'yicha o'tkazilgan musobaqa g'oliblariga kubok hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

2022-06-02 17:38:47